



THE ERA OF YUSUF KORABOGHI'S LIFE: SOCIO-POLITICAL SITUATION AND SPIRITUAL ENVIRONMENT

Otabek Davronov

*Teacher of Bukhara State University
Bukhara, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Habibulla Mirzajan, A.A. Semyonov, Muhammadali Tarbiat, Kh. Arasli, Tarikhi Rahimi, Shahabuddin Suhrawardi, Tahzib, Qazvini.

Received: 10.07.25

Accepted: 11.07.25

Published: 12.07.25

Abstract: This article is devoted to the life and creative heritage of the great philosopher of the 17th century, Yusuf Karabaghi, and analyzes the socio-political and spiritual environment of his time, as well as how these factors influenced the scholar's worldview and philosophical views. Karabaghi was born in the Karabagh region of Azerbaijan and worked in the scientific centers of the East - Shiraz, Samarkand and Bukhara. He created a number of important works in the fields of philosophy, law and theology in Arabic and Persian. This article analyzes his works "Hoshiya Khonaqah", "Commentary on the Proof of the Obligatory", "Seven Paradises" and others in terms of content and aims to reveal their historical, scientific and spiritual significance. The philosopher's scientific heritage had a great influence on the philosophical thought of the Near and Middle East. The article draws attention to the fact that Karabaghi's heritage has not been fully studied today.

YUSUF QORABOG'II YASHAGAN DAVR: IJTIMOIIY-SIYOSIIY VAZIIYAT VA MA'NAVIY MUHIT

Otabek Davronov

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Buxoro, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Habibulla Mirzajon, A.A.Semyonov, Muhammadali Tarbiat,

Annotatsiya: Ushbu maqola XVII asrning yirik faylasufi Yusuf Qorabog'iy hayoti va ijodiy merosiga bag'ishlangan bo'lib, u

X.Arasli, Tarixi Raximiy. Shaxobiddin Suhravardiy, Tahzib, Qazvinii.

yashagan davridagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muhit, shuningdek, bu omillarning alloma dunyoqarashi va falsafiy qarashlariga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil etilgan. Qorabog'iy Ozarbayjonning Qorabog' mintaqasida tug'ilib, Sharqning ilm markazlarida – Sheroz, Samarqand va Buxoroda faoliyat yuritgan. U arab va fors tillarida falsafa, huquq va ilohiyot sohalarida qator muhim asarlar yaratgan. Mazkur maqolada uning “Xonaqoh hoshiyasi”, “Vojibning subuti haqidagi sharh”, “Yeti jannat” va boshqa asarlari mazmunan tahlil qilinib, ularning tarixiy, ilmiy va ma'naviy ahamiyati ochib berishga qaratilgan. Faylasufning ilmiy merosi Yaqin va O'rta Sharq falsafiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatgan. Maqolada Qorabog'iy merosining bugungi kunda to'liq o'rganilmaganiga e'tibor qaratilgan.

ЭПОХА ЖИЗНИ ЮСУФА КОРАБОГИ: ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ОБСТАНОВКА И ДУХОВНАЯ СРЕДА

Отабек Давронов

*Преподаватель Бухарского государственного университета
Бухара, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хабибулла Мирзаджан, А.А. Семёнов, Мухаммадали Тарбиет, Х. Араслы, “Тарихи Рахимий”, Шахабуддин Сухраварди, “Тахзиб”, Казвини.

Аннотация: Статья посвящена жизни и творческому наследию великого философа XVII века Юсуфа Карабаги. В ней анализируется общественно-политическая и духовная обстановка его времени, а также влияние этих факторов на мировоззрение и философские взгляды ученого. Карабаги родился в Карабахском регионе Азербайджана и работал в научных центрах Востока – Ширазе, Самарканде и Бухаре. Он создал ряд важных трудов в области философии, права и теологии на арабском и персидском языках. В статье анализируются его произведения «Хошия Хонака», «Комментарий к доказательству обязательного», «Семь раев» и другие с точки зрения содержания, раскрывается их историческое, научное и духовное значение. Научное наследие философа оказало большое влияние на философскую мысль Ближнего и Среднего Востока. В статье обращается внимание на то, что наследие Карабаги до сих пор изучено не в полной

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yusuf Qorabog'iy yashagan davr va u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyati va ma'naviy muhiti bilan bog'liq masalalarni rus tarixchi olimlar A.M.Boguddinov va A.A.Semyonovlar, bundan tashqari, Muhammadali Tarbiet, X.Arasli, A.A.Aminzoda, M.Nuritdinovlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, umumlashtirish, taqqoslash, analiz, sintez, tarixiylik, o'zaro aloqadorlik usullaridan foydalanildi.

Kirish

Asli Ozarboyjonlik, ammo umrining ko'p qismini Buxoro va Samarqandda o'tkazgan, XVI asr ikkinchi yarmi — XVII asr birinchi yarmidagi O'rta Osiyo ijtimoiy-falsafiy va ilmiy tafakkuri rivojiga munosib hissa qo'shgan Yusuf al-Qorabog'iyning hayot yo'li, falsafiy asarlari zamondosh olimlarimiz tomonidan ozmi-ko'p tadqiq qilinib, bu haqda maqola, kitoblar chop etilgan.

Yusuf Qorabog'iyning tarjimai holiga oid tadqiqotlarda Ozarboyjonning Qorabog' o'lkasida tug'ilib-o'sgan olim o'spirinlik yoshida Sherozga borib, mashhur faylasuf Habibullo Mirzjon Sheroziyga shogird tushgani, XVI asr ikkinchi yarmida ustozi bilan Buxoroga kelib vatan tutgani aytiladi. Bu asarlarda olimning 1563 yili tug'ilib, 1647 yili Buxoro yaqinidagi Safidmun mavzeida dunyodan o'tgani, 1690 yili esa uning xoki "Badaxshonda dafn etilgan ustozi Xalilulloh Badaxshiy mozori yoniga ko'chirilgani" yozma manbalar asosida zikr qilinadi.

Metodologiya

Yusuf Muhammadjon o'g'li Qorabog'iy XVI asrning oxiri va XVII asrning yarmida Ozarbayjon xalqining yirik faylasufi va olimi hisoblanadi. Lekin uning ma'naviy merosi bugunga qadar o'rganilmasdan kelindi va shu jihatga ko'ra, faylasufning shaxsiyati, u yashagan davr, dunyoqarashi bilan keng jamoatchilik yetarlicha tanish bo'la olmadi. 1928-yilda shovet sharqshunosi A.A.Semyonov "Markaziy Osiyolik XVII asrning unutilgan faylasufi va uning Pinhonlik haqida risolasi" nomi ostida Yusuf Qorabog'iyning tarjimai – holi bilan tanishtirdi [1.137].

A.Semyonov shaklda o'z maqolasining boshida Yusuf Qorabog'iy unutilgan XVII asr faylasufi deb nomlaydi. Lekin taassuflar bo'lsinki, bu olim, unutilgan faylasufning milliy mansubligini aniqlashda faqat "Tarixi raximiy" nomli bir tazkiraning qo'lyozmasida uning Iroqning Irot viloyatida Xo'ja Qorabog' nomli bir olim bo'lganini aytdi va Yusuf Qorabog'iy Ozarbayjonlik faylasuf olim ekanligi borasida hech qanday fikr yuritilmadi. Shubhasiz, bizning nazarimizga, "Tarixi – raximiy" va unga iqtibos keltirgan A.Semyonovning Yusuf Qorabog'iyning qaysi o'lka va xalqqa mansubligi borasidagi bergan ma'lumotlar izohsiz

qolgani bois tarixan to'g'ri emas va bulardan keyin kelgan tadqiqotchilar ham yanglish fikrlarni takrorlaydilar [2.404].

Yusuf Qorabog'iyning Ozarbayjonlik ekanligi haqidagi ilk to'liq ma'lumot Eron Ozarbayjoniyning mashhur ilm, madaniyat va davlat xodimi Muhammadali Tarbiet bo'ladi. U 1935-yilda Tehronda chiqarilgan "Donishkandayi Ozarbayjon" nomli kitobida Yusuf Qorabog'iyning nomini Ozarbayjonning buyuk olimlari sirasida qayd etadi. M.Tarbiet yozadi "Xoja nomi bilan mashhur bo'lgan Yusuf Muhammadjon o'g'li Qorabog'iy Muhammadshoh o'z davrining olimlaridan o'laroq Jaloliddin Dovoniyning "Sharhi – Arajidi –Azudi" nomli kitobiga tafsir yozganki, u ham Xanigohi nomi bilan mashhurdir" [2.404]. Demak, Muhammadali Tarbiet ham Yusuf Qorabog'iyning tarjimai holiga to'xtalib, bu borada qanoatbaxsh ma'lumotlar bergan. A.Semyonov birinchi marta "Tarixi – Raximiy" va boshqa manbalarda berilgan ma'lumotlarni to'plab yozgan maqolasida Yusuf Qorabog'iyning hayoti va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish uchun harakat qiladi.

Albatta shu narsani alohida qayd etish lozimki, so'ngi yillarda Yusuf Qorabog'iyning nomi yetarli holda O'rta Osiyo Respublikalarining yoinki Ozarbayjon Respublikasining bir qancha adabiyotshunos, tarixchi va faylasuflarning asarlarida o'rin ajratildi.

O'zbekiston Respublikasining tarixiga doir ikki jildli asarda Y.Qorabog'iyning ilmiy va madaniy xizmatlari borasida "Kelib chiqishi Eronlik bo'lgan mullo Yusuf Qorabog'iy falsafa va huquq sxolastikasining turli sohalari bo'yicha bir necha arab va fors tilidagi kitoblarning muallifi bo'lib, ular 1918- yilgacha madrasada o'qiydiganlar uchun asosiy qo'llanma sifatida xizmat qilgan"[3.446].

Bu qisqa ma'lumotdan ko'rinadiki Yusuf Qorabog'iy yashagan davrda buyuk olim faylasuf bo'lish bilan birga, yuksak kayfiyatli madaniyat xodimi va ma'rifatparvar sifatida shuxrat qozongan.

Yusuf Qorabog'iy haqida Ozarbayjon SSR tarixi institutining o'n jildlik Ozarbayjon tarixining birinchi jildida xulosa shaklida shunday deyiladi: "Ozarbayjon faylasufi Yusuf Qorabog'iy o'lka turklar tomonidan ishg'ol etilar ekan O'rta Osiyoga muhojirot etmoqqa majbur bo'ladi. U yerda avval Samarqandga, so'ng esa Buxoroda yashaydi. U arab va fors tillarida falsafa va huquq masalalariga doir bir qanch asarlar muallifidir. Qorabog'iy asarlaridan ba'zilari bir qancha vaqt o'rta asr, xususan O'rta Osiyo madrasalarida o'qitilgan"[4.306].

XVII asr Ozarbayjon faylasufi akademik X.Araslining "XVII-XVIII asrlar Ozarbayjon adabiyoti tarixi" nomli kitobida quydagi ma'lumotlar diqqatni jalb etadi: "XVII asr Ozarbayjon olimlari ichida Yusuf Muhammadjon o'g'li bir faylasuf kabi tanilgan. Yusuf Qorabog'iyning O'rta Osiyo xonliklarining madaniyatiga muayyan ta'siri bo'lgan[5.78].

Yusuf Qorabog'iy nomini akademik A.M.Boguddinov "Tojik falsafasi tarixi bo'yicha ocherklar" nomli kitobida muallif XVII asr O'rta Osiyo xonliklarining falsafiy fikriga to'xtalar ekan o'z falsafasi va mantiqiy asarlari bilan ushbu xalqlar orasida mashhur bo'lgan Yusuf Qorabog'iy haqli ravishda ijobiy ma'noda xotirlaydi. A.M.Bogouddinov shunday fikrni qayd etadiki, XVII asrning so'fiy adabiyotida Kuboviya ordeni deb nomlangan so'fiylarning namoyondasi Yusuf Qorabog'iy Muhammadshohning asarlarini istisno etmoq mumkindir. Demak, uning asarlari imkon qadar o'rganilmagandir[6.218-219 B].

Yusuf Qorabog'iy ozarbayjonning Qorabog' mahalida ruhoniylar oilasida dunyoga keladi. U ilk tahsilini tug'ilgan yurtida olgandan so'ng Eronga ketadi va u yerda o'z davrining buyuk olimi bo'lgan Habibulloh Mirzjon Sheroziyning shogirdlaridan biri bo'ladi. Qorabog'iy bir qancha ilmlarni, shu jumladan, riyoziyot, astronomiya, tib, falsafa sohasida zamonasining buyuk olimi sifatida shuhrat topadi[6.218-219 B].

XVI-XVII asrlarda Safaviy hukdorlarining boshqaruv sharoitida Yusuf Qorabog'iy o'zini tahlika qarshisida ko'rarkan, tug'ilgan yurtida yashay olmasligini bilib, o'z muallimi Mulla Mirzjon Sheroziy bilan birgalikda Movarounnahga ketib, O'rta Osiyo shaharlarida muhojirlik etmoqqa majbur bo'ladi.

Yusuf Qorabog'iy eng avvalo sharqning muhim ilmiy va madaniy markazlaridan biri Samarqandda dars berishdan boshlaydi. Oz bir muddat ichida aholining va talabalarning katta hurmatini qozongan Yusuf Qorabog'iy (Katta Oxund) laqabi bilan mashhur bo'ladi.

Talabalardan avvalo Samarqand va Buxoro faylasuflari Yusuf Qorabog'iydan ko'p samarali ma'lumotlarni oladilar. Buyuk faylasuf Samarqandda bo'lganda mistik qarashlardan tamomila farqlangan sufiylarning Kubraviya tariqatini qabul etadi. Bu tariqatning g'oyaviy rahbari sifatida mashhur shayx Xusayn Xorazmiyning shogirdi shayx Xalilulloh Badaxshiy hisoblanadi. Kubraviya tariqati aqidasi tanigan sufiylar asos etiborika ko'ra ozod fikrli shaxslardan iborat edi.

Yusuf Qorabog'iy bir muddat Samarqandga kelgandan so'ng O'rta Osiyoning boshqa muhim ilmiy va madaniyat markazi bo'lgan Buxoro shahriga keladi. U bu yerda ilmiy tadqiqotlar ishlari bilan mashg'ul bo'lish bilan birga bir qancha original asarlar, tafsirlar yozadi. Bu vaqtda Imoqulixon Baxodirxon Buxoro amiri edi. Yuksak she'r tabiga molik bo'lib, olimlar, shoirlar, iohiyotchilar va darveshlarni rag'batlantirgan Imomquli Baxodirxon (1020-1051/1611-1642) Yusuf Qorabog'iy buyuk xizmatlarini qo'llab-quvvatlaydi, u bilan do'stlik aloqalarini saqlaydi. Imomquli Baxodirxon ilohiyotchilarning, darveshlarning, olimlar va shoirlarning suhbatiga mayl ko'rsatar, ulardan maroqlanar va bu toifa vakillari suhbatidan o'zi uchun foyda olar edi.

Yusuf Qorabog'iyning musulmon sharqida shuhrat topishida va faoliyatini yuksalishida yuqoridagi jihatlar ijobiy rol o'ynadi. Tazkirachilar uning haqida yuksak fikrlarni bildirdilar. Bu borada "Tarixi – Raximiy" da yozilgan: Ilmlar sohasida ko'p zangin kitoblari borki, shaxsiyatlar orasida shuhrat qozonishdir[7.233a].

Bir qancha mo'tabar manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondining katalogining nomlari keltirilgan kitoblar Qorabog'iyning muhim asarlaridan iboratdir.

Tazkirashunos Mir Sharif Sayid Xoja Rahim Qorabog'iyning istedodi va yaratuvchiligi haqida fikr yuritir ekan, quydagilarni yozadi: "U ilmlarda mutaxassis va mohir bo'ldi. Xususan falsafa va nujum ilmida zamonasining mislsiz olimi va asrning yagonasi edi"[7.233].

Ushbu muallif ushbu asarning boshqa bir qismida "Olimlarning sultoni, fozillarning subuti Mavlono Yusuf Qorabog'iy bilim toju- taxtida azizlangan va ilm samosida on to'rt kechalik oy kabi shafaqlangan. U O'z insoniy axloq va adab qoida- qonunlari bilan Ehvon us-safoga raqib chiqdi"[7.232b], deya qayd etadi.

Ushbu fikrlardan ko'rinadiki Qorabog'iy nafaqat faylasuf balki she'r san'atida ham yuksak ta'b va istedodga ega bo'lgan. "Tarixi – Raximiy"ning muallifi "...Yusuf Qorabog'iy she'r san'atida alohida istedodga ega edi. Uning qasidalari badiiy san'atkorlik yo'li bilan boshdan oxir nodir va mazmunli qofiyalar bilan bitilgan" [7.218b], deya yozadi.

Yusuf Qorabog'iy ilohiyot va falsafa sohasida o'z o'rniga ega bo'lib, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari va olimlari orasida katta shuhrat qozongan original asarlarning muallifidir. Bu borada "Tarixi Raximiy"da quydagicha korsatiladi. "Ilmlar ustida ko'p zangin kitoblari bordirki, shaxsiyatlar orasida shuhrat qozongan" [7.233].

Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondining katalogida asosan Yusuf Qorabog'iyning muhim asarlari quydagilardan iboratdir:

1. "Xonaqoh hoshiyasi". Arab tilida bo'lgan bu asar 999 hijriy qamariy yil safar oyining uchida (1590-1591) Samarqand shahrining Xusejneja nomli xonaqohida yozilgan. Shunga ko'ra ham bu asar "Xonaqoh hoshiyasi" deb nomlangan. Bu asar XV-XVI asrlarda yashagan fors faylasufi va mutafakkiri Jaloliddin Muhammad Davoniyning "Azudining aqidalari" nomli kitobiga sharh holatida yozilgan. Qorabog'iy bu asarni "Kubraviya" tariqatining g'oyaviy rahbari Abu Homid Xalililloh Badaxshiyga hadya etgan"[8.38].

2. Yusuf Qorabog'iyning 1033 hijriy qamariy yilda Buxoroda ikkinchi asari "Anglashilmagan masalalarni bartaraf etish haqida tamomlanuvchi tafsirlar", deb nomlanadi. Shu o'rinda bir jihatga alohida ahamiyat qaratish lozimki, mutafakkirning "Xonaqoh hoshiyasi" deb nomlangan birinchi asari olimlarning, jumladan o'sha davr mafkurasining qizg'in

himoyachisi Og'a Husayn Xalhali ishizm nuqtai- nazaridan tanqid etadi. Qorabog'iy bu hodisadan xabardor bo'ladi. Shu sabab alloma boshlagan yangi asarni Og'a Husayn Xalhaning tanqidlariga javob shaklida tartib beradi va o'z qarashlarini himoya etib, o'zining aqida va dunyoqarashini asoslashga harakat qiladi[8.40].

3. Muallifning uchinchi asari "Vojibning subuti haqidagi risolaning sharhi" deb nomlanadi. "Vojibning subuti haqidagi risola"ning muallifi Jaloliddin Muhammad Dovoniydir. Arab tilida yozilgan bu asar to'liq borliq tahliliga qaratilgan.

4. Shahobiddin Suhravardiyning "Nur haykallari" asariga sharh va bu sharhga bir hoshiya shaklida yozilgan "Nur sarajlarining sharhi" deb nomlangan asar. Ma'lumki, Suhravardiy XII asr sharqning buyuk faylasuflaridan biri hisoblanadi. U tomonida yozilgan asarlarga bir qancha sharhlar yozilgan. Ushbu sharhlardan biri Jaloliddin Dovoniy tomonidan yozilgan "Nur haykallarining sharhi bo'lgan nur manzaralari"dir.

5. "Tahzib" kitobining sharhi va hoshiyasi. Yusuf Qorabog'iyning arab tilida yozgan bu hoshiyasi "Buyuk Oxundun kitobi" nomi bilan 1325 chi hijriy-qamariy (1907) yilda Buxoroda toshbosma holida nashr etilgan. Hozirda ushbu asar qo'lyozmasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida No-5130 (III, No-6086) raqam ostida saqlanadi.

6. "Borliq falsafasi kitobiga hoshiya" yusuf Qorabog'iyning bu hoshiyasi buyuk olim Nosiriddin Tusiyning shogirdi bo'lgan Al-qazviyning "Hikmatul ayn" asari tahlil etilgan.

7. "Hikmat asariga buyuk oxundun hoshiyasi", "Hikmat" asarining muallifi Najmiddin Abubakr ibn Amarul – kotibi Al-qazviydir.

8. "Borliq falsafasining sharhiga hoshiya".

9. "Ilmning tarifiga doir maqola".

10. "Xastalikdan qutilish" nomli asar sharhining hoshiyasi.

11. "Jaloliy aqidalarining shahiga doir Xonaqoh hoshiyasi". "Jaloliddin aqidalari" nomli asarning muallifi Jaloliddin Dovoniy hisoblanadi. Bu musulmon sharqida keng yoyilgan "Axloqi Jaloliy" nomi bilan ham mashhurdir.

12. "Yashirin bo'lgan narsalar haqida risola".

13. "Qorabog'iy ta'liqasi".

14. "Bo'linmas hissaning izohi haqida risola"

15. "Jimo haqiqati nomli asari haqida hoshiyalar".

Yuqoridagilardan ko'rinadiki Yusuf Qorabog'iy arab tilida yozgan bir qancha asar va maolalari bordirki, ular Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Yusuf Qorabog'iy fors tilini mukammal bilgani uchun, bu tilda ham falsafiy va ilmiy asarlar yozgan. Faylasufning fors tilida bo'lgan asarlaridan biri "Yeti behisht" yoki

“Chamaniyya” nomli risolasidir. Bu asarning fasllari “Behisht”, fasllarning bo’limlari esa “Chaman” deb nomlangan.

Yusuf Qorabog’iy risolada yozgan kichik kirishida asarning yozilish sababiga ishora etar ekan, bu asar Xalajning hukdori, kichik yoshli lekin teran tushunchali Xoja Abdurahim Sa’dning savoliga javob holida yozilgan.

Buxorolik Nasiriddin Torm faylasufning asarlari orasida “G’azallar devoni” nomli bir kitobi borligini eslatadi[8.44].

Xulosa

Bir so’z bilan aytganda, Yusuf Qorabog’iy keng bilimli, teran falsafiy bilim va yetarlicha tajribaga ega faylasufdir. Allomaning yaratuvchiligi Yaqin va O’rta Sharq, xususan Ozarbayjon, Eron va O’rta Osiyo xalqlarining hayoti, maishat tarzi va ma’naviyati bilan kop suratda bog’liq bo’lgani uchun ushbu xalqlarning madaniy an’analari zamini asosida formallashgan. Uning dunyoqarashi asos e’tiboriga ko’ra sufiy- paneistik harakterga ega.

Qorabog’iy o’z ma’naviy merosida fasafiy masalalarni tadqiq etar ekan uning qarashlarida bir sira ziddiyatli jihatlarni uchratish mumkin. Masalan, faylasuf goh peripatetizim, goh afltunchilik kabi o’rta idealizm mavqeidan o’z qarashlarini bayon etadi, ba’zan dunyoga va real borliqqa teran maftunlik ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. “Известаяобщества дела изучения Таджикистана и Иранский народностей за его придилами.” Т.и. Ташкент. 1928.
2. Muhammadali Tarbiet. Donishkandiy Ozarbayjan. Tehron. 1314(1935). С.404.
3. История Узбекской ССР. Т.1. Ташкент.1955. С. 446.
4. Azarbayjon tarixi (o’n jildda). 1-jild. Boku. 1961. В. 4.
5. X.Arasli. XVII-XVIII asrlar Ozarbayjon adabiyoti tarixi. Boku. 1956. В. 78.
6. А.М.Богуддинов. Очерки по истории Таджикой философ. Душанбе. 1961. 7. Хожа Said Sharif. Tarixi –Rahimiy. Sahifa. 233.
7. А.А.Aminzoda. Азарбайжонда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикр тарихидан. Т. I. Баку. 1966. С. 289.